

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT
SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**“Tasdiqlayman”
O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat
instituti rektori**



N.B. Sayfullayev

2025-y

“Kelishildi”

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi**



“18” iyun 2025-y

“Kelishildi”

**O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi**



“18” iyun 2025-y

**IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**60211200-Rejissyorlik: dramatik teatr rejissyorligi
ta'lim yo'nalishi uchun**

- 1. Dramatik teatr rejissyorligi fanidan**
- 2. Aktyorlik mahorati fanidan**

Toshkent – 2025

Dastur O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Badiiy, o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2025-yil "30" may 10-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

- | | | |
|---------------|---|---|
| X.A.Mahmudova | – | O'zDSMI "Dramatik teatr va kino san'ati" kafedrasi professori |
| X.N.Qobilov | – | O'zDSMI "Dramatik teatr va kino san'ati" kafedrasi dotsenti |
| A.S.Utayev | – | O'zDSMI "Dramatik teatr va kino san'ati" kafedrasi katta o'qituvchisi |

Taqrizchilar

- | | | |
|--------------|---|--|
| M.R.Yusupova | – | O'zDSMI "Estrada va ommaviy tomoshalar san'ati" kafedrasi professori, san'atshunoslik fanlari nomzodi. |
| X.X.Sa'diyev | – | O'zbekiston xalq artisti |

Kirish

60211200 – Rejissyorlik (dramatik teatr rejissyorligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihoni, me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida shakllantiriladi va kirish imtihonlari unga muvofiq o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha kirish imtihonlar har bir ixtisos uchun ta'kidlangan qabul talablariga muvofiq ravishda o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha imtihon o'tkazilishining ketma-ketligi har bir oliy o'quv yurtining qabul komissiyasi tomonidan o'rnatiladi va har yili qabul qilish qoidalari ko'rsatiladi.

60211200 – Rejissyorlik (dramatik teatr rejissyorligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishiga o'qishga kirayotganlar ijodiy va tashkiliy ishlarga qobiliyatli hamda yuksak ijodkorlik, ijrochilik, tashkilotchilik, yo'nalishdagi fikrlash qobiliyatiga, asarni tanlash va sahnalashtirilishida zaruriy jihatlarni bilish, tushunish, his qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Fanning maqsadi va vazifalari

60211200 – Rejissyorlik (dramatik teatr rejissyorligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishda kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning rejissyorlik layoqatini ijodiy sinovlar orqali fanlaridan ijodiy hamda amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Fanning vazifasi – abituriyentlarni mazkur soha bo'yicha zamonaviy ta'lim metodlari orqali sinash, musiqiy savodini, rejissura konsepsiyasini, rejissura asoslarini, sahnaviy asarlarning janri, spektaklda aktyorlarning obraz yaratishi, xarakter, aktyorlar ifodaviy vositalaridan foydalanish qoidalarini aniqlashdan iborat.

Abituriyent bu bosqichda quyidagi dasturlarni tayyorlashi lozim:

- 1) rejissyorlik tahlili;
- 2) suhbat (rejissura bo'yicha suhbat);
- 3) masal (I.V.Krilov, S.Mixalkov, M.Xudoyqulov, A.Obidjon va h.k.)
- 4) monolog (biron bir pesadan qahramon monologi);
- 5) she'r;
- 6) hayvonot olami (hayvonot xulq-atvori) – kuzatishlar asosida etyud;
- 7) yakka etyud – (abituriyentning yakka o'zi bilan sahnada sodir bo'layotgan so'zsiz voqea ko'rinish).

Bundan tashqari, abituriyent qiziqqan sohasi yoki janri bo'yicha o'zining

tayyorlab kelgan mustaqil nomerini ham namoyish etishi mumkin. Masalan:

- 1) rejissura bo'yicha qo'shimcha ijodiy ishlar;
- 2) plastika;
- 3) pantomima;
- 4) buyumlar jonlanishi – etyud;
- 5) parodiya (taqlid san'ati);
- 6) musiqa san'ati.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

Dramatik teatr rejissyorligi fani bo'yicha suhbatda (og'zaki imtihonida) abituriyent ijodiy qobiliyati sinaladi. Abituriyentning ijodiy salohiyati, insoniy jozibadorligi, xislati, tabiati, yoshi, tashqi ko'rinishi, yoqimtoyligi hamda ichki madaniyati bilan birga uning dunyoqarashi, san'at va madaniyat, haqida adabiyot, teatr dramaturgiyasi haqidagi tushunchalar talabga javob berishi tekshiriladi.

Aktyorlik mahorati fani bo'yicha rejissyorlikka kirmoqchi bo'lgan abituriyent ijodiy qobiliyatga ega bo'lishi, musiqani tushunishi kerak. Abituriyent sahnada aktyorlik mahoratini namoyish etayotgan jarayonda uning ijodiy salohiyati va sahnaviy tarovati, tashqi ko'rinishi, hayotiy tajribasi, tasavvurining rang-barangligi, ta'sirchanligi, hayotiy voqea va hodisalarga munosabati va ularni sahnada aks ettira olish salohiyati mavjud bo'lishi kerak.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

Dramatik teatr rejissyorligi fani bo'yicha

T.r.	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1	Abituriyentning dunyoqarashi va ijodiy salohiyati	10
2	Mantiqiy-obrazli fikrlash, ijodiy tasavvur, kuzatuvchanlik, xotiraviy mushohadasi	15
3	Musiqiy eshitish	15
4	Adabiyot va dramaturgiya haqida tushuncha	15
5	Insoniy jozibadorligi, xislati, hayotiy tajribasi, tashqi ko'rinishi	3
6	San'at va madaniyat haqida tushunchasi	10
7	Shaxsning o'ziga xosligi, tashkilotchilik qobiliyati, ma'naviy-axloqiy xislatlari	5
8	Sahna madaniyati, estetik didi, muomala munosabati. Umumlashtirish layoqati	5
9	Rejissyor kabi fikrlash	5
10	Rassomchilik, musiqa, raqqoslik va plastik san'at haqidagi	5

	tushunchasi	
11	Abituriyentning ijodiy salohiyati va sahnaviy tarovati (tasavvurining rang-barangligi, ta'sirchanligi, hayotiy voqea va hodisalarga munosabati va ularni sahnada aks ettira olish salohiyati)	5
Jami:		93

Aktyorlik mahorati fani bo'yicha

1	Sahnaviy fikrlashi	10
2	Ijro mahoratidagi ta'sirchanligi, tabiiyligi, o'ziga xosligi	5
3	Sezgi (ko'rish, eshitish va idrok etish) qobiliyati	5
4	Abituriyentning sahnaviy tasavvuri – hayotiy (real) muhitda, turli sharoitlarda abituriyentning berilgan vaziyatda qahramon o'rnida o'zini ko'ra bilish salohiyati	5
5	Abituriyentning sahnaviy fantaziyasi – haqiqiy hayotda mavjud bo'lmagan, ehtimoldan uzoq bo'lgan (noreal) sharoitlarda o'zini ko'ra olish qobiliyati	5
6	Abituriyentning plastikasi (nafis harakat, tana harakatlarining ifodaviy ta'sirchanligi, ma'nodorligi)	5
7	Abituriyentning improvizatsiyaga moyilligi	5
8	Etyud ijrosi (hayotdan olingan bir voqeani dialoglarsiz, predmetsiz, xatti-harakatda ijro eta olishi)	5
9	Talaffuzning sofligi, ravonligi, burroligi, aniqligi (nutq a'zolaridagi organik va noorganik kamchiliklarning yo'qligi)	5
10	Ovozning jarangdorligi	5
11	Nutqiy ifodaviylik va ta'sirchanligi (nutqiy eshitish qobiliyatining mavjudligi)	5
12	Ijro uslubi va mahorati (she'r, g'azal, monolog, masal, hikoya)	3
Jami:		63

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

60211200 – Rejissyorlik (dramatik teatr rejissyorligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunlarda rejissura, aktyorlik mahorati fanlaridan ijodiy imtihonini topshiradi. Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar 30 nafar abituriyentdan iborat bo'lib, ijodiy imtihon guruhlari bo'yicha o'tkaziladi. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar maxsus qurollar bilan jihozlangan auditoriyalarda bo'lib o'tadi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon raisi, rejissyorlikdan kurs oluvchi pedagog, ovoz, nutq, vokal hamda raqs mutaxassislarining tekshiruvi bilan o'tkaziladi. Sog'lom ovozning mavjudligi, ijodiy salohiyatga egaligi, organik yetishmovchiliklarining yo'qligi o'rganiladi.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin.

Murojaat mazmuni faqat o'zining ballari haqida bo'lsagina qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**

1. Maxmudov. J. Rejissura tarixi va nazariyasi. – T.: “Fan va ta’lim poligraf” nashriyoti, 2016.
2. Maxmudova. X. Sahnaviy asarning xatti-harakatli tahlili. – T.: “Fan va texnologiya” – T.: 2012.
3. Djon Benedikt. Aktyorning o‘z ustida ishlashi (K.S.Stanislavskiy). 2-qism. Routledge. 2008.
4. Lenard Petit. For the Actor (Aktyor texnikasi). Taylor & Francis, 2009.
5. Qodirov. R. Rejissura asoslari. Monografiya. “Navro‘z” nashriyoti – T.: 2015.
6. Sayfullayev. B., Mamatqosimov. J. Aktyorlik mahorati. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012.
7. Stanislavskiy K. S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. T.Xo‘jayev tarjimasi. –T.: (qayta nashr) Badiiy adabiyot, 2010.

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.infocom.uz
3. www.uzreport.com

60211200 - Rejissyorlik (dramatik teatr rejissyorligi) ta'lim yo'nalishidagi
“Kasbiy (ijodiy) imtihonlar dasturi va baholash mezonlari” kafedra
professori X.Mahmudova, dotsent X.Qobilov katta o'qituvchi A Utayevlar
tomonidan tuzilgan dasturiga tashqi
TAQRIZ

Dasturini tuzishda mualliflar sohaning o'ziga xos yo'nalishlari, usul va uslublari aniq ko'rsatib o'tganlar. O'qishga kirayotganlar, ijodiy va tashkiliy ishlarga qobiliyatli hamda yuksak ijodkorlik, ijrochilik, tashkilotchilik, yo'nalishdagi fikrlash qobiliyatiga, asarni tanlash va sahnalashtirilishida zaruriy jihatlarni bilish, tushunish, his qilish qobiliyatiga ega bo'lishi talablari dasturda keltirilgan.

Dasturda rejissyorlik qobiliyatini sinashga mos talablar tanlangan. Dastur abituriyent ijro etadigan asarlar bir-biridan janr va mazmuni bo'yicha ajralib turishi kerakligi, bu narsa abituriyentning qobiliyatini va ijodiy diapozonining kengligini chiqarishga imkoniyat yaratilishiga qaratilgan, mualliflar yetuk mutahassis kadr tayyorlashda zarur bo'lgan boshqa talablarni ham qamrab olishga harakat qilganlar.

O'qishga kiruvchi shaxs uchun dasturdagi barcha talablar sodda va tushunarli qilib tuzib chiqilgan.

Rejissura fanining yordamchi fanlari bo'lmish Aktyorlik mahorati, Sahna nutqi fanlarining talablari ham aniq ishlab chiqilgan. Mazkur fanlar rejissuraning fundamental fani hisoblanadi. Sanab o'tilgan jihatlarni amaliy nuqtai nazardan o'rganmay turib, Rejissura mahoratiga ega bo'lish mumkin emas.

Dastur “Dramatik teatr va kino san'ati” kafedrasi kafedra mudiri A.Utayev, professor X.Mahmudova hamda dotsent X.Qobilovlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu “Kasbiy (ijodiy) imtihonlar dasturi va baholash mezonlari” dasturini mutaxassis sifatida barcha talablarga mos keladi deb hisoblayman va uni tasdiqlash uchun tavsiya qilaman.



O'zbekiston Xalq artisti

X.X.Sa'diev

**60211200 - Rejissyorlik (dramatik teatr rejissyorligi) ta'lim yo'nalishidagi
"Kasbiy (ijodiy) imtihonlar dasturi va baholash mezonlari" kafedra
professori X.Mahmudova, dotsent X.Qobilov katta o'qituvchi A Utayevlar
tomonidan tuzilgan dasturiga**

TAQRIZ

Bo'lajak musiqiy teatr rejissyorlarini qabul qilish, yuqori malakali karlar talabiga davogarlarni kasbiy (ijodiy) imtihonini o'tkazish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

60211200 - Rejissyorlik (dramatik tear rejissyorligi) yo'nalishiga hujjatlarni qabul qilish va kirish imtihonlar "O'zbekiston respublikasi Oliy o' quv yurtlariga gabul qilish goidalari"ga muvofiq o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha kirish imtihonlar har bir ixtisoslik uchun ta'kidlangan qabul talablariga muvofiq ravishda o'tkaziladi. Ixtisoslik bo'yicha imtihon o'tkazilishining ketma-ketligi har bir Oliy o'quv yurtining qabul komissiyasi tomonidan o'rnatiladi va har yili gabul qilish goidalari ko'rsatiladi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga kirayotganlarga, yil mobaynida va imtihonlar oldidan konsultatsiyalar o'tkaziladi. Konsultatsiyalarning maqsadi - qabulning shartlari bilan tanishish, shu oliy o'quv yurtiga kirishni xoxlovchilarning qobiliyatini va tayyorgarlik darajasini aniqlanishdir. Konsultatsiyalar mobaynida pedagoglar, abituriyentlarni tanlagan ixtisosiga o'qitish imkoniyatiga qarab o'z tavsiyalarini berishadi.

Mazkur ta'lim yo'nalishini bitirganlar professional teatrlarda, madaniyat va san'at muassasalarida, madaniyat va sport ishlari boshqarmasida ixtisoslikka mos lavozimlarda ishlashi mumkin.

Dasturdan joy olgan fanlar bo'yicha nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar teatr va san'atning boshqa sohalariga, Malaka talablari va namunaviy dasturlar asosida rejissyorlikni egallashi lozim bo'lgan talablar asosida barcha tizimlarga va barcha talablarga mos keladi.

Yuqoridagilardan hulosasi qilib 60211200 - Rejissyorlik (dramatik teatr rejissyorligi) ta'lim yo'nalishi sohasida OTMga kirish uchun tuzilgan mahsus dasturni amaliyotga tavsiya etaman.

O'zDSMI "Estrada va ommaviy tomoshalar san'ati"
Kafedrasida professori San'atshunoslik fanlari nomzodi



M.R. Yusupova